


“TASDIQLAYMAN”

Raqamli iqtisodiyot va
agrotexnologiyalar universiteti
Iqtisodiy ishlar bo'yicha prorektor
K.R. Hotamov



RAQAMLI IQTISODIYOT VA AGROTEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

To'lov asosida oliy ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha OMMAVIY OFERTA

“RAQAMLI IQTISODIYOT VA AGROTEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETI” MChJ (keyingi o'rinlarda – Universitet) ushbu hujjatni O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-moddasiga muvofiq oliy ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha ommaviy oferta (keyingi o'rinlarda – **Oferta**) sifatida e'lon qiladi.

Oferta bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha ta'lim olish uchun qonunchilikda hamda Universitet tomonidan belgilangan qabulning minimal talablarini bajargan o'qishga talabgor jismoniy shaxslarga (keyingi o'rinlarda – Talaba) qaratilgan.

Mazkur Oferta Universitetning rasmiy axborot manbalari, shu jumladan Universitetning rasmiy veb-sayti (www.udea.uz) orqali e'lon qilinadi.

Oferta Talaba tomonidan kamida 1 000 000 (bir million) so'm miqdorida dastlabki to'lov amalga oshirilgan paytdan boshlab kuchga kiradi hamda Talabaning butun o'qish davri davomida amal qiladi. Dastlabki to'lov Talabaning qabul kvotasidagi o'rnini kafolatlaydi.

To'lov Universitetning hisobiga kelib tushganidan keyin Talaba belgilangan tartibda talabalar safiga qabul qilinadi.

1. OFERTA PREDMETI

1.1. Universitet ushbu Oferta shartlariga muvofiq Talabaga tanlangan ta'lim dasturi bo'yicha ta'lim xizmatlarini ko'rsatish majburiyatini oladi.

1.2. Talaba ta'lim xizmatlarini qabul qiladi va Ofertaga muvofiq to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshiradi.

1.3. Talaba o'quv dasturini muvaffaqiyatli yakunlab, o'z majburiyatlarini bajargan taqdirda, unga qonunchilikda belgilangan tartibda diplom beriladi.

2. SHARTNOMANING TUZILISHI TARTIBI

2.1. Ushbu Oferta bo'yicha (Talabaning JSISHIR aks etilgan holda) amalga oshirilgan dastlabki to'lov 1 000 000 (bir million) so'mdan kam bo'lmagan miqdorda Talabaning Universitetda ta'lim olishga rozilik bildirganini anglatadi va Ofertani qabul qilish (aktsept) hisoblanadi.

2.2. Qabul jarayoni yakunlanguniga qadar Talaba joriy o'quv yili uchun ta'lim xizmatlar narxining kamida 25 (yigirma besh) foizini to'lashi lozim. Narxlar Universitetning rasmiy veb-saytida (<https://udea.uz/uz/admissions/tuition-fees>) ko'rsatilgan.

2.3. To'lov tartibi va muddatlari Universitetning rasmiy veb-saytida (<https://udea.uz/uz/admissions/payment-options>) ko'rsatilgan.

2.4. Agar Talaba to'lov amalga oshirilgan kundan boshlab 1 (bir) oy ichida Universitetda ta'lim olmasligini yozma ravishda ma'lum qilsa, amalga oshirilgan to'lovi to'liq qaytariladi.

2.5. Bir oylik muddatdan so'ng ta'lim olmaslik haqida xabar berilgan taqdirda, amalga oshirilgan to'lovdan 1 000 000 (bir million) so'm ushlab qolgan holda qolgan qismi qaytariladi.

2.6. Universitet tomonidan yuboriladigan xabarlar va bildirishnomalar Talabaning elektron pochta manzili orqali yuboriladi va yuborilgan paytdan keyingi kundan boshlab Talaba tomonidan qabul qilingan deb hisoblanadi.

2.7. Nizolar yuzaga kelganda hujjatlar ustuvorligi quyidagicha belgilanadi:

- Oferta;

- Universitetning ichki me'yoriy hujjatlari.

3. HISOB-KITOB QILISH TARTIBI

3.1. Ta'lim xizmatlari narxlarini Universitetning rasmiy veb-saytida (<https://udea.uz/uz/admissions/tuition-fees>) e'lon qilinadi.

3.2. Universitet keyingi o'quv yillari uchun ta'lim xizmatlari narxini o'zgartirish huquqini saqlab qoladi.

3.3. To'lov quyidagi tartibda amalga oshirilishi lozim:

3.3.1. Dastlabki to'lov – 1 000 000 (bir million) so'm miqdorida;

3.3.2. Universitetning rasmiy veb-saytida (<https://udea.uz/uz/admissions/payment-options>) belgilagan muddatgacha – dastlabki to'lov miqdori ta'lim xizmatlari narxining kamida 25 (yigirma besh) foizigacha yetkaziladi;

3.3.3. O'quv yili uchun ta'lim xizmatlari narxining qolgan qismi Universitetning rasmiy veb-saytida (<https://udea.uz/uz/admissions/payment-options>) belgilagan muddatlarda amalga oshiriladi.

3.4. To'lov amalga oshirilgan sana deb mablag'larning Universitet bank hisob raqamiga kelib tushgan kun hisoblanadi.

3.5. To'lov tafsilotlarida Talabaning F.I.Sh. va jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JShShIR) ko'rsatilishi kerak. To'lov tafsilotlari to'g'ri ko'rsatilishi Talaba yoki to'lovchi zimmasiga yuklatiladi.

3.6. Talabaning darslarda ishtirok etmasligi yoki o'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirmasligi to'lovni qaytarish uchun asos bo'lmaydi.

3.7. Ta'lim xizmatlari uchun to'lov muddatidan oldin amalga oshirilishi mumkin.

3.8. Universitet ichki hujjatlariga muvofiq talabalar uchun stipendiya, chegirmalar yoki boshqa to'lov imtiyozlari belgilanishi mumkin.

3.9. Talabaning arizasiga ko'ra va Universitet ichki hujjatlariga muvofiq to'lov muddatlari o'zgartirilishi mumkin.

3.10. To'lov Talabaning o'zi yoki uchinchi shaxs tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Talaba va to'lovchi o'rtasidagi munosabatlar uchun Universitet javobgar bo'lmaydi.

3.11. Oferta bekor qilinganda o'zaro hisob-kitoblar mazkur Oferta va 2.4 va 2.5-bandlarni inobatga olgan holda amalga oshiriladi.

3.12. Qaytarilishi lozim bo'lgan mablag'lar ariza qabul qilingan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kun ichida to'lovni amalga oshirgan shaxsning bank hisob raqamiga o'tkaziladi.

3.13. Bank xizmatlari bilan bog'liq xarajatlar Talaba tomonidan qoplanadi, agar qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa.

3.14. Oferta Talabaning yoki Universitet tashabbusi bilan bekor qilinganda, ta'lim xizmatlari tegishli o'quv yilining Talaba chetlashtirilgan kunigacha ko'rsatilgan hisoblanadi va shu davr uchun to'lovni Talaba to'liq qoplaydi.

4. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. Universitetning majburiyatlari:

4.1.1. Qabul talablarini bajargan va qabul jarayoni yakunlanguniga qadar ta'lim xizmatlari narxining kamida 25 (yigirma besh) foizini to'lagan Talabani belgilangan tartibda talabalar safiga qabul qilish.

4.1.2. Ta'lim xizmatlarini davlat ta'lim standartlari hamda tasdiqlangan o'quv dasturlariga muvofiq ko'rsatish.

4.1.3. Ta'lim jarayoniga malakali professor-o'qituvchilarni jalb qilish.

4.1.4. Talabaga kutubxona, axborot-resurs markazi, sport infratuzilmasi hamda Universitet ichki hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa imkoniyatlardan foydalanish sharoitini yaratish.

4.1.5. Talabani Universitetning elektron axborot tizimlariga ulash va ulardan foydalanish uchun zarur ma'lumotlarni berish.

4.1.6. Talaba o'quv dasturini muvaffaqiyatli yakunlab, barcha majburiyatlarini bajargan taqdirda, unga qonunchilikda belgilangan tartibda diplom berish.

4.2. Universitetning huquqlari:

4.2.1. Talabaning o'quv jarayonidagi ishtirokini va majburiyatlarni bajarishini nazorat qilish.

4.2.2. Ta'lim sifatini pasaytirmagan holda dars jadvali va o'quv jarayoniga o'zgartirishlar kiritish.

4.2.3. Qonunchilik talablari yoki zarurat tug'ilganda o'qitish shaklini masofaviy shaklga o'tkazish.

4.2.4. Talabaga nisbatan qonunchilik va Universitet ichki hujjatlariga muvofiq rag'batlantirish yoki intizomiy choralar qo'llash.

4.2.5. Mazkur Ofertada nazarda tutilgan hollarda uni bir tomonlama bekor qilish.

4.2.6. Talaba o'z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda uning Universitet binosi, elektron tizimlari, shu jumladan Universitetning elektron ta'lim platformalari va axborot tizimlaridan hamda boshqa ta'lim xizmatlaridan foydalanishini vaqtincha cheklash.

4.2.7. Oferta Talaba tashabbusi bilan bekor qilinganda mazkur Ofertaga muvofiq hisob-kitoblarni amalga oshirish.

4.2.8. Talabalar turar joyi bilan ta'minlashda Universitetning ichki mezonlarini qo'llash.

4.3. Talabaning majburiyatlari:

4.3.1. O'quv jarayonida faol ishtirok etish va o'quv dasturini o'zlashtirish.

4.3.2. Darslarga belgilangan tartibda qatnashish va davomat talablariga rioya qilish.

4.3.3. Universitet talabiga binoan ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish hamda shaxsiy ma'lumotlar o'zgartirishida bu haqda 5 ish kuni ichida Universitetga xabar berish.

4.3.4. Universitetning ichki hujjatlari va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish.

4.3.5. Universitet mol-mulkiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish.

4.3.6. Belgilangan tartibda amaliyot o'tash.

4.3.7. Qonunchilikda taqiqlangan faoliyatlarda ishtirok etmaslik.

4.3.8. Oferta va Universitetning rasmiy veb-satida belgilangan to'lovni o'z vaqtida amalga oshirish.

4.3.9. Akademik qarzdorlik yuzaga kelganda uni belgilangan tartibda bartaraf etish.

4.4. Talabaning huquqlari:

4.4.1. Davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim olish.

4.4.2. Ta'lim uchun to'lovni homiylik orqali amalga oshirish.

4.4.3. Universitet hayotida ishtirok etish va o'z fikrini hurmat doirasida bildirish.

4.4.4. Axborot-resurs markazidan foydalanish.

4.4.5. Qonunchilik va Universitet ichki hujjatlariga muvofiq bepul xizmatlardan foydalanish.

4.4.6. Qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda belgilangan tartibda akademik ta'vil olish.

5. OFERTANING BEKOR QILINISHI

5.1. Mazkur Oferta quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:

- a) Talabaniing yozma arizasiga ko'ra;
- b) Talaba boshqa ta'lim muassasasiga o'qishini ko'chirganida;
- c) Universitet tomonidan bir tomonlama tartibda;
- d) qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

5.2. Talaba o'z tashabbusi bilan Ofertani quyidagi tartibda bekor qiladi:

5.2.1. Talabalar safidan chetlashtirish haqida belgilangan tartibda ariza beradi.

5.2.2. Universitet bilan hisob-kitoblarini amalga oshiriladi.

5.2.3. Hisob-kitoblar yakunlangandan so'ng hujjatlarini qabul qilib oladi.

5.3. Universitet quyidagi hollarda Ofertani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga ega:

a) Talaba bir semestr davomida darslarni uzrli sabablarsiz 74 soatlardan ortiq qoldirganida;

b) Talaba o'qish uchun belgilangan to'lovni o'z vaqtida amalga oshirmaganida;

c) Talaba Universitetning ichki tartib-qoidalarini hamda odob-axloq qoidalarini buzganida;

d) Talaba Universitetning obro'siga zarar yetkazuvchi harakatlar sodir etganida;

e) sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etilganida;

f) qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

5.4. Oferta Universitet tashabbusi bilan bekor qilinganda Talaba belgilangan tartibda talabalar safidan chetlashtiriladi.

6. OFERTA BO'YICHA JAVOBGARLIK

6.1. Talaba Universitetning mol-mulkiga zarar yetkazgan taqdirda, yetkazilgan zararni qonunchilikda belgilangan tartibda qoplaydi.

6.2. Talaba shartnoma yoki Universitet ichki hujjatlari talablarini buzsa, Universitet unga nisbatan quyidagi choralarni qo'llashi mumkin:

6.2.1. Universitet hududi yoki imtihonlarga kirishni vaqtincha cheklash;

6.2.2. ta'lim xizmatlarini vaqtincha to'xtatib turish;

6.2.3. Universitetning axborot tizimlari va resurslaridan foydalanishni cheklash;

6.2.4. ma'lumotnoma va boshqa hujjatlarni berishni vaqtincha to'xtatish.

6.3. Mazkur choralar qo'llanilishi oqibatlarini uchun Talabaniing o'zi javobgar bo'ladi.

6.4. Universitet ichki hujjatlarida nazarda tutilgan qoidalar va jarimalar Talaba uchun majburiy hisoblanadi.

6.5. Talaba o'zining noqonuniy harakatlari yoki huquqbuzarliklari uchun shaxsan javobgar bo'ladi. Universitet axborot tizimlaridagi Talabaniing shaxsiy kabineti orqali amalga oshirilgan harakatlar ham Talabaniing o'zi tomonidan amalga oshirilgan deb hisoblanadi.

6.6. Universitet faqat o'z aybi bilan yetkazilgan zararlar uchun qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

6.7. Oferta bilan tartibga solinmagan javobgarlik masalalari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq hal etiladi.

6.8. Nizolar avvalo muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi. Kelishuvga erishilmasa, nizo Universitet joylashgan hududdagi sudga ko'rib chiqiladi.

7. FORS-MAJOR HOLATLARI

7.1. Taraflar o'z majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinadilar, agar bu urush, fuqarolik tartibsizliklari, tabiiy ofatlar,

epidemiya, davlat organlarining qarorlari yoki Taraflarning irodasiga bog'liq bo'lmagan boshqa favqulodda holatlar natijasida yuzaga kelgan bo'lsa.

7.2. Fors-major holati majburiyatlarni bajarishga bevosita ta'sir ko'rsatgan bo'lishi lozim.

7.3. Fors-major yuzaga kelgan Taraf bu haqda imkon qadar tezroq boshqa Tarafni xabardor qiladi.

7.4. Zarur hollarda fors-major holati vakolatli organ tomonidan tasdiqlanishi mumkin.

7.5. Fors-major amal qilgan davrda majburiyatlarni bajarish muddati ushbu davrga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

7.6. Agar fors-major uzoq muddat davom etsa va Ofertani bajarish imkonsiz bo'lib qolsa, Taraflar shartnomani bekor qilish masalasini ko'rib chiqish huquqiga ega.

8. QO'SHIMCHA SHARTLAR

8.1. Talaba talabalar safiga qabul qilingan kundan boshlab mazkur Ofertada belgilangan majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan hisoblanadi.

8.2. Talaba akademik qarzdor bo'lgan taqdirda, qo'shimcha ta'lim xizmatlari Universitet tomonidan belgilangan tartibda ko'rsatiladi va Talaba ular uchun to'lovni amalga oshiradi.

8.3. Ta'lim xizmatlari Universitet hududida va/yoki masofaviy shaklda ko'rsatilishi mumkin.

8.4. Mazkur Oferta Talabani Universitetda o'qishi davomida amal qiladi.

8.5. Universitet Talabani o'qish tugagandan so'ng ish bilan ta'minlash majburiyatini olmaydi.

8.6. Oferta qabul qilinishi orqali Talaba o'zining shaxsga doir ma'lumotlariga hamda ishtirokidagi foto/video materiallarga Universitet tomonidan qonunchilikka muvofiq ishlov berilishiga razilik beradi. Shaxsga doir ma'lumotlar ta'lim jarayonini tashkil etish, hisobotlar taqdim etish hamda qonunchilik talablarini bajarish maqsadida uchinchi shaxslarga berilishi mumkin. Foto va video materiallardan reklama, marketing, hisobot va boshqa Universitet manfaatlarini doirasidagi maqsadlarda faoydalanilishi mumkin.

8.7. Universitet mazkur Oferta yoki ta'lim xizmatlariga oid umumiy shartlarga o'zgartirish kiritish huquqini saqlab qoladi. O'zgarishlar kuchga kirishidan kamida 10 kun oldin Talabani shaxsiy kabinetini orqali xabar beriladi.

“RAQAMLI IQTISODIYOT VA AGROTEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETI” MCHJ

Manzil: Toshkent sh., Chilonzor tumani, 3-mavze, 74-uy

Bank rekvizitlari:

H/r: 20208000905476026003

“Agrobank” ATB Toshkent shahar filiali

MFO: 00394

STIR: 309176977

Tel.:(78) 888 08 00